

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SINONIMIYA HODISASI, DOMINANTA VA UNING MUAMMOLARI

Rajabov Nizomiddin Namoz o'g'li

Buxoro davlat universiteti

Lingvistika o'zbek tili ta'lif yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilshunoslige sinonimik qatorlarida dominantalarining o'rni va ahamiyati, ular bilan bog'liq muammolar xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: sinonimiya (ma'nodoshlik), dominanta (bosh so'z), emotsiyonal bo'yoq, denotativ ma'no, o'z qatlam, umumnutqqatlam so'zlar.

O'zbek tilshunoslida ma'nodoshlik (sinonimiya) hodisasi bir qancha mufassal o'rganilgan va tilshunos olimlar tomonidan ushbu hodisa mohiyatan o'z yechimini topgan deyish mumkin, ammo haligacha sinonimiya hodisasiga beriladigan ta'riflarning va u haqidagi qarashlarning turlicha bo'lishiga asosiy sabab sinonimik sistemaning unga aloqador hamda yondosh hodisa sifatida tilda yashab kelayotgan hodisalardan alohida, ya'ni yakka holda o'rganilganligidadir. "O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari" kitobi mualliflari bu hodisa haqida quyidagicha fikr bildiradi: O'zbek tilshunoslida ma'nodoshlik (sinonimiya) qatorlari atroficha o'rganilgan leksik paradigmalardan biridir. Shaklan har xil, mazmunan bir xil so'zlar qatori - muayyan o'xshashlik asosida bir nechta til birliliklarining bog'lanishi, bu birliklar orasidagi muayyan farqlar maxsus ilmiy ishlarda, o'nlab qo'llanma va darsliklarda o'z yechimini topgan.

"O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati"da sinonimlarga quyidagicha ta'rif beriladi:

"Sinonimlar- talaffuzi, yozilishi har xil, birlashtiruvchi ma'nosi bir xil (umumiyligi) bo'lgan qo'shimcha ma'no nozikligi, emotsiyonal bo'yog'i, qo'llanilishi kabi bir qator xususiyatlari bilan o'zaro farqlanadigan so'zlardir. Ana shunday umumiyligi ma'no bilan o'zaro bog'lanuvchi so'zlar guruhi sinonimik qatorni hosil qiladi". Yana, ushbu manbada ta'kidlanishicha, sinonimik qatordagi so'zlar turli jihatlarda farqlanishi mumkin:

- Sinonimik qatordagi so'zlar ifodalaydigan tushuncha doirasi o'zaro farqli bo'lishi mumkin;

- Sinonimik qatordagi so‘zlar tushunchaning belgisini turli daraja bilan ifodalashi mumkin;
- Sinonimik qatordagi so‘zlar emotsional bo‘yoqdorligiga ko‘ra o‘zaro farqlanishi mumkin;
- Sinonimik qatordagi so‘zlar nutqning biror turiga, uslubiga xosligi jihatdan ham o‘zaro farqlanishi mumkin;
- Sinonimik qatordagi so‘zlar hozirgi adabiy til nuqtai nazaridan eskirgan bo‘lishi mumkin;
- Sinonimik qatordagi so‘zlar adabiy tilga yoki, dialektlarga xos bo‘lishi mumkin;
- Sinonimik qatordagi so‘zlar ko‘p yoki, oz qo‘llanishiga ko‘ra o‘zaro farqlanishi mumkin.

Tilshunos olim A. Hojiyev ma’nodoshlik hodisasi mohiyatini ushbu tavsif orqali mumkin qadar ochib berishga harakat qiladi, biroq professor E.Qilichevning ta’biri bilan aytganda, “sinonimlarning barcha xususiyatlarini bir ta’rifga sig‘dirib bo‘lmaydi. Shu sababli sinonimlar ta’rifida ularning umumlashtiruvchi ma’nosи, aytilishi va yozilishi hisobga olinadi, xolos.”

Odatda sinonimik qatorlarni belgilashda dominantalar muhim sanaladi, shuningdek, qatordagi boshqa a’zolar bosh so‘z atrofida jipslashadi. Dominant so‘z boshqalaridan ko‘ra ko‘proq qo‘llaniladi, uslubiy bo‘yoqlardan xoli bo‘ladi, hamma uslublarda birdek ishlatilaveradi. Masalan: osmon-ko‘k-samo-falak-gardun sinonimik qatorida osmon so‘zi; chiroy-husn-zeb-jilo qatorida chiroy so‘zi kabi sinonimik qatorlar bunga misol bo‘la oladi. Ushbu jihat ham tilshunoslikda olimlar tomonidan turli terminlar bilan izohlanadi. Masalan: dominanta, bosh so‘z, asosiy so‘z, tayanch so‘z, bosh ma’no va boshqa shu kabi terminlar qo‘llanib kelingan. Bular orasida dominanta va bosh so‘z atamalari kengroq qo‘llaniladi. shu boisdan ham sinonimiya hodisasida dominantaning o‘rni va ahamiyatini anglagan holda, ushbu bo‘limda dominanta hamda u bilan bog‘liq muammolar xususida so‘z yuritishni joiz bildik.

Ra’no Sayfullayeva boshchiligidagi “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobi mualliflari dominantaga quyidagicha ta’rif beradilar: “Ma’nodoshlik qatoridagi leksemalarning bittasi dominanta (bosh) leksemasi bo‘lib, boshqalari shu leksema atrofida birlashadi, ma’nodoshlik qurshovi hosil qiladi. Dominanta leksemaning yuqorida sanalgan barcha ifoda semalari neytral, betaraf bo‘ladi. Masalan, katta - ulkan - bahaybat sinonimik qatori «kitobiylig», «ko‘tarinkilik» ifoda semalari asosida tashkil topgan. Qatordagi katta leksemasida bu sema belgilanmagan, neytral, ulkan va katta leksemalarida ifodalangan, oydinlashtirilgan. Ma’nodoshlik qatoridagi dominanta leksemaning bir qancha o‘ziga xos xususiyatlari bor:

1. Dominanta leksemaning mazmuni boshqa leksemalarnikiga nisbatan kambag‘alroq bo‘ladi. Qiyoslang: chiroyli, go‘zal va suluv. Ushbu qatordagi chiroyli leksemasida go‘zal va suluv leksemasidagi ko‘tarinkilik bo‘yog‘i yo‘q.

2. Dominanta leksemaning qo‘llanish doirasi va miqdori boshqa ma’nodoshlarnikiga nisbatan keng va ko‘p bo‘ladi.

3. Dominanta leksema belgilanmagan ifoda semasiga ega bo‘lganligi bois istalgan vaqtida o‘z ma’nodoshlarini almashtira oladi.

4. Ma’nodoshlik qatori mansub bo‘lgan katta tizimga faqat dominanta leksema kiradi. Masalan, «kishi tanasi a’zolari» lug‘aviy ma’noviy guruhiga yuz dominanta leksemasi kirib, qulqoq, burun, lab, qosh, peshona leksemalari bilan paradigma hosil qiladi. Boshqa ifoda semasi belgilangan leksemalar «betaraf» bo‘lmaganligi bois yuqori paradigmaga kiraolmaydi va ularning betaraf vakili bu xuquqqa ega bo‘la oladi, xolos."

Tilimizda umumnutq qatlam so‘zlari mavjud bo‘lib, ko‘p hollarda dominantalar mana shu turkum so‘zlaridan tanlab olinadi. Bunday so‘zlar adabiy nutqda ham, so‘zlashuv nutqida ham bir xil darajada ishlatiladi. Lug‘at boyligidagi so‘zlearning ko‘pchiligi shu qatlamga mansubdir: zamonaviy qatlam so‘zlari, ishlatilishi chegaralanmagan leksikaning aksariyati, shuningdek sinonimik qatordagi dominantalar, uslubiy bo‘yog‘i bo‘lmagan betaraf ma’noli so‘zlar umumqatlam birliklari sanaladi. Dominanta (bosh so‘z) atamasi nafaqat leksemalar yoki sinonimiya hodisasiga taalluqli termin bo‘libgina qolmay, boshqa til birliklariga ham, xususan, ma’noviy paradigm hosil qiladigan yana bir nechta sistemalar tarkibida ham o‘rganib kelinadi.

Tilshunos olima Farida Saidova shu masala xususida fikr bildiradi. Olimaning fikricha, sinonimik qatorning chegarasini belgilashda bosh so‘zning ahamiyati katta. Lug‘aviy paradigmalarning bir qator sifatida namoyon bo‘lishi va har bir qatorning o‘z bosh so‘zi bo‘lishi tabiiy. Bitta leksemaning mazmuniy maydon hosil qiluvchi a’zolari mavjud bo‘lsa, umumiylar ma’noga ega bo‘lgan so‘z bosh so‘z ham mavjud. Ilmiy adabiyotlarda bosh so‘z terminiga sinonim sifatida uslubiy betaraf, neytral, mo‘tadil, dominant so‘z kabi terminlar qo‘llanib kelinadi.

Tilshunos olim A. Hojiyev dominantalar xususida fikr yuritar ekan, Sinonimlar qatoridagi bir so‘z bosh so‘z (asosiy so‘z) hisoblanishi va bu bosh so‘z, odatda, hozirgi adabiy tilga mansubligi, emotsiyal bo‘yoq, uslubga ko‘ra betarafligi va sh. k. xususiyatlari bilan shu qatordagi boshqa so‘zlardan farqlanishi hamda xuddi shu xususiyatlari ko‘ra tilda boshqalariga nisbatan keng qo‘llanishini ta’kidlaydi. Masalan, chiroyli, go‘zal, husnli, husndor, xushro‘y, ko‘hli, zebo, suluv, sohibjamol... Sinonim qatorida chiroyli so‘zi shunday belgilarga ega va bosh so‘z hisoblanadi.

Qolgan so‘zlar esa har biri o‘ziga xos belgi xususiyati bilan boshqalaridan farqlanadi: go‘zal so‘zi belgini kuchli (yuqori) daraja bilan ifodalaydi; barno, zebo so‘zlari ko‘proq kitobiy uslubga ega, suluv so‘zi esa nisbatan kam qo‘llanadi va h.k. Olimning fikricha, nutqda sinonimlarning har biridan ularga xos belgi, xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bizning fikrimizcha ham shunday, biroq dominantalarning ham ilmiy-amaliy, ham nazariy ahamiyati sinonimik qator uchun qanchalik muhim ekanligini inobatga oladigan bo‘lsak, ularga nisbatan berilayotgan ta’riflar hamda qo‘yilayotgan talablar va shartlarning yetarlicha emasligi kabi holatlarning ko‘rinishi uchraydi. Vaholanki, sinonimik qatordagi bosh so‘zga bir nechta qat’iy talablar bo‘lishi lozim:

1. Hozirgi adabiy tilga mansub bo‘lishi;
2. Emotsional bo‘yoq va uslubga ko‘ra betarafligi;
3. Dominanta leksemaning qo‘llanish doirasi va miqdori boshqa ma’nodoshlarnikiga nisbatan keng va ko‘p bo‘lishi hamda boshqa a’zolar o‘rnida bemalol almashinib kela olishi;
4. O‘z qatlam yoki umumnutq qatlam doirasiga mansub bo‘lishi;
5. Bosh (denotativ) ma’noli so‘z bo‘lishi (ko‘chma ma’noli so‘z bo‘lmasligi) lozim;

Ammo mavjud dominantalarning barchasi ham yuqoridagi talablarga to‘liq javob bera olmaydi. Masalan, “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”da usta, ustamон, bilag‘on, bilarmon, uddaburon, chechan, epchil, chaqqon sinonimik qatorida “balo” so‘zi dominanta sifatida qabul qilingan. Vaholanki, “o‘zbek tilining izohli lug‘ati”da balo so‘zining yuqoridagi sinonimik qatorga muvofiq keladigan ma’nolari mavjudligi haqida fikr yuritilmaydi. Balo so‘zi yuqoridagi ma’nolarda faqat badiiy asarlarda: “Jo‘rtaga ko‘ringansan, yosh bo‘lsang ham balosan...” – teskari qarab labini burdi Nuri (Oybek). Yana, oddiy so‘zlashuvda: “ Balo ekan-da bu: qo‘lidan kelmaydigan ish yo‘q ” kabi holatlarda ko‘chma ma’noda qo‘llanishi mumkin. Ko‘chma ma’nodagi so‘z esa, ma’nodoshlik qatorining dominantasi sifatida qabul qilinishiga normal holat deb qaray olmaymiz. Qachonki, manodoshlik qatoridagi dominanta (bosh) so‘zlarni tanlashda xatoga yo‘l qo‘yilmasa, sinonimik qatorga ortiqcha, o‘rinsiz so‘zlarning kirib qolishi kabi salbiy holatlarning oldi olinishi mumkin bo‘ladi. O‘z davri uchun mukammal manba hisoblanib kelingan mavjud lug‘atlar esa, bugungi kunga kelib zamonning rivojlanishi va turmush tarzimizni hayotiy texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydigan bir jarayonda ona tilimizning keng imkoniyatlarini yetarli darajada ko‘rsatib bera olmayotgandek ko‘rinadi. Salkam yarim asr ilgari yaratilgan sohaga xos lug‘atlar, bugun jadal o‘sib borayotgan innovatsion texnologiyar va kompyuter asrida biroz “keksayib” qolganligi ayni haqiqatdir.

Shunday ekan, yosh tilshunoslar oldida zamon talablariga mos keladigan, o‘zbek tili imkoniyatlarini har tomonlama namoyon qila oladigan ilmiy qolaversa, o‘quv lug‘atlarini yaratish kabi muhim va ustuvor vazifa turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H.Ne’matov, R.Rasulov “O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari” “O‘qituvchi” Tosh.-1995.
2. A. Hojiyev. “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”. “O‘qituvchi” Tosh.-1974.
3. Ra’no Sayfullayeva “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Tosh.-2005.
4. H.Jamolxonov “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Tosh.-“Talqin”-2005.
5. Saidova Farida alloyor qizi. “Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya.Vol. 1 №. 01 (2022).